

Date: 17th April-2025

**INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDA IJTIMOY ADOLAT PRINSIPINING
RO'LI**

Otanazarov Kamronbek A'zambek o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

ORCID: 0009-0001-5404-897X

kamronbekotanazarov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini huquqiy ta'minlanishi, ijtimoiy adolatning asosiy tamoyillari, prinsipining o'rni va ularning o'zaro chambarchas bog'liqligi xalqaro huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilik hamda dolzarb statistik ma'lumotlarga tayangan holda tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируются правовое обеспечение прав человека в Республике Узбекистан, основные принципы социальной справедливости, их роль и взаимосвязь на основе международных правовых документов, национального законодательства и актуальных статистических данных.

Annotation: This article analyzes the legal framework for the protection of human rights in the Republic of Uzbekistan, the fundamental principles of social justice, their role, and mutual interconnection, based on international legal instruments, national legislation, and relevant statistical data.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, ijtimoiy adolat, normativ-huquqiy hujjatlar, statistika, BMT, qonun ustuvorligi, tenglik, huquqiy himoya.

Ключевые слова: права человека, социальная справедливость, нормативно-правовые акты, статистика, ООН, верховенство закона, равенство, правовая защита.

Keywords: human rights, social justice, normative legal documents, statistics, UN, rule of law, equality, legal protection.

Mamlakatimizda yuz berayotgan keng ko'lamli islohotlarda inson huquqlarining ta'minlanishi muhim o'rin tutadi. Inson huquqlari – bu har bir inson tug'ilganidan boshlab ega bo'lgan ajralmas huquq va erkinliklardir. Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir va har bir inson uchun umumiyligiga teng darajada kafolatlanadi.² Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 2-moddalarinda**, shu bilan birga yangi tahrirlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 19-moddasida ham keltirilib o'tilgan. Lekin, bu inson huquqlarini ta'minlanishi va amalga oshirilishi uchun yetarli emas. Mazkur

² BMT, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, M-2

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi/Yangi tahrirlangan, M-19

BMT, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, M-2.

Date: 17th April-2025



mavzuning dolzarbliji shundan iboratki, inson huquqlarini ta'minlashda ijtimoiy adolat prinsipining qo'llash kerakmi va o'rni muhimmi degan savolga javob topish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Inson huquqlari qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ular zamонавиу huquqiy tizimga XIX–XX asrlarda chuqur singdirilgan. Qadimda inson huquqlari borasidagi ilk qarashlar Hammurapi qonunlarida (mil. avv. XVIII asr) namoyon bo'lgan. Bu qonunlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan bo'lsa-da, tabaqalashtirish tamoyiliga asoslangan edi: jamiyat aholisi erkin fuqarolar, qullar va ruhoniylar kabi qatlamlarga bo'lingan, va har bir qatlam uchun alohida huquqiy me'yorlar joriy etilgan. Bu qonunlarda adolat, jazo va tenglik masalalari ko'tarilgan bo'lsa-da, bugungi tushunchadagi "inson huquqlari" darajasida emas edi. Yunoniston va Rimda ham siyosiy huquqlar mavjud bo'lgan, biroq faqat erkaklar va fuqarolar bu huquqdan foydalana olishgan. Qullar, ayollar va chet elliklar bunday huquqlardan mahrum bo'lgan. Masalan, Afina shahrida (Hozirgi Gretsya) faqatgina erkaklar va fuqarolar saylovlarda ovoz bera olgan.³ XVIII asrda inson huquqlari ilk bor rasmiy huquqiy hujjatlarda mustahkamlana boshladi. 1776-yilgi AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi va 1789-yildagi Fransiya Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi insonlarning teng va erkin yaratilganini e'lon qildi. Tomas Jefferson (AQShning 3-prezidenti) Deklaratsiyada shunday yozgan edi: "Biz quyidagi haqiqatlar o'z-o'zidan ravshan, deb hisoblaymiz: barcha odamlar teng yaratilgan, ular yaratuvchi tomonidan ayrim ajralmas huquqlarga ega bo'ladi, bu huquqlarga hayot, erkinlik va baxt izlash kiradi."⁴ Biroq, bu davrda ham haqiqatda tenglik mavjud emas edi. Sababi ayollar bu huquqlardan amalda foydalana olmagan.

Inson huquqlari tamoyillarining real ta'minlanishiga sezilarli hissa qo'shgan muhim voqeа — **Ikkinci jahon urushidan** keyingi davr hisoblanadi. Urushdan so'ng 1948 yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan. Bu hujjat har bir insonning huquqlari va erkinliklari davlatlar tomonidan kafolatlanishi lozimligini belgiladi. Aynan mana shu davrdan boshlab, inson huquqlarini ta'minlashda ijtimoiy adolat prinsipi ro'li muhim ekanligi va har bir inson uchun teng imkoniyat, farovon hayot, ta'lim va huquqiy himoya ta'minlanishi — xalqaro huquqiy normalar darajasida tan olinib, qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda Har bir insonning yashash huquqi, erkin fikrashi, teng huquqli bo'lishi demokratik jamiyat asosidir va poydevoridir. Ular insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ekologik huquqlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham insonning hayoti sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi va boshqa huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi O'zbekiston Respubikasi Konstitutsiyasida qat'iy belgalanib qo'yildi va kerakli chora tadbirlar ko'rildi: Jumladan:

1. O'qituvchilarning sha'ni va qadr qimmati davlat himoyasida ekanligi asosiy qonunda belgilanib qo'yildi. Ularning faoliyatiga aralashish taqiqlandi.

³ Sagdullayev, A. S., & Kostetskiy, V. A. (2013). Tarix: Qadimgi dunyo: 6-sinf o'quvchilari uchun darslik (Tuzatilgan va to'ldirilgan 4-nashr). Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis. B-87

⁴ AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi, (1776).

Date: 17th April-2025

2. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ldi va qonun bilan muhofaza qilindi.

3. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

4. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlandi.

5. Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rdi.

6. 2021-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya";

7. Sud-huquq tizimidagi islohotlar;

8. O'zbekistonning "Global Justice Index" reytingida 2020–2024 yillar oralig'ida o'z o'rmini yaxshilashi.

Ushbu islohotlar inson huquqlarini ta'minlashda ijtimoiy adolat tamoyilining amaliyatga joriy etilayotganidan dalolat beradi. Demak, inson huquqlarining to'laqonli ta'minlanishi ijtimoiy adolat prinsipi orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, bizga ijtimoiy adolat prinsipini qo'llash zarur. Ijtimoiy adolat prinsipi jamiyatda tenglik, imkoniyatlar barobarligi, zaif qatlamlarni himoya qilish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy adolat inson huquqlarining amalda ta'minlanishini kafolatlaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Shu boisdan:

- O'zbekistonda ayollar mehnat bozorida erkaklarga nisbatan kamroq ishtirok etadi, yuqori ishsizlik darajasiga ega va kamroq maosh oladi. Ta'lim tizimida ham qizlar o'g'il bollarga qaraganda kamroq ta'lim oladi. Bu gender tengsizligi nafaqat ayollar uchun, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishi uchun ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respubлиka Prezidenti Shavkat Mirziyayevning" Agar oilada bitta o'g'il bola ilm o'rgansa oilasiga hissa qo'shgan bo'ladi, agar oilada bir nafar qiz ta'lim olsa u davlatga hissa qo'shadi" degan fikrni aytgan. Shuning uchun ham ayollarni jamiyatdagi o'rni va mavqeyini kuchaytirish kerak.

- Ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarni kengaytirish zarur.

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali aholining o'z huquqlarini anglash darajasini oshirish lozim.

- Ijtimoiy adolatni o'chovchi indikatorlar ishlab chiqilishi va ular asosida baholash tizimi joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

Garchi O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lsa-da, shahar infratuzilmasi (jamoat transporti, ko'chalar, davlat binolari) hali to'liq moslashtirilmagan. Bu World Bankning 2023-yilda chop etilgan "Accelerating the Inclusion of Persons with Disabilities in Uzbekistan's Digital Economy" nomli hisobotida o'z aksini topgan.⁵

⁵ World Bank. (2023). *Accelerating the Inclusion of Persons with Disabilities in Uzbekistan's Digital Economy*. Washington, DC: World Bank Group. B.19 -22.

Date: 17th April-2025

- Shaharsozlik me'yorlarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirish (rampalar, liftlar, ovozli ko'rsatmalar).

- Har bir viloyatda "Inclusive Monitoring" markazi tashkil etish.

Aholining katta qismi o'zining konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklaridan bexabar. Bu esa ularni ijtimoiy tengsizlikka duchor etadi.

- Har bir tuman mакtabida yoki MFYda "Huquqiy bilimingizni oshiring" klublarini tashkil qilish.

Davlatda "ijtimoiy adolat" darajasi qanday o'lchanadi – bu borada rasmiy indikator yoki reyting mavjud emas.

- Har yili "O'zbekiston ijtimoiy adolat reytingi" ishlab chiqilishi (hududlar kesimida).

- Har bir vazirlik ijtimoiy adolatga ta'siri bo'yicha baholanadigan indikatorlarni e'lon qilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi, 217 A (III) rezolyutsiyasi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights> (1948).

2. O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasi. Yangi tahrirlangan. (2023) <https://lex.uz/docs-6445145>

3. AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi, (1776).

https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSh_mustaqillik_deklaratsiyasi

4. BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrdagi 2200 A (XXI) rezolyutsiyasi **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.** <https://lex.uz/docs/-2640479>

5. Sagdullayev, A. S., & Kostetskiy, V. A. (2013). Tarix: Qadimgi dunyo: 6-sinf o'quvchilari uchun darslik (Tuzatilgan va to'ldirilgan 4-nashr). Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis. B-87 <https://www.hasanboy.uz/wp-content/uploads/2017/09/tarix-6.pdf>
World Bank. (2023). *Accelerating the Inclusion of Persons with Disabilities in Uzbekistan's Digital Economy*. Washington, DC: World Bank Group. B.19 -22
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099072924092034323/pdf/P17958919f34a10ff18cc617ca799748cc8.pdf>